

JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK VA YER SOLIQLARI MA'MURIYATCHILIGI SAMARADORLIGI TAHLILI

ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF PROPERTY AND LAND TAX ADMINISTRATION FOR INDIVIDUALS

[1]Akbarova Nilufar Ne'matjonovna

[1]*Qo'qon universiteti Andijon filiali, "Iqtisodiyot va moliya" kafedrasi o'qituvchisi,* ***G-mail:*** *nilufar897@gmail.com*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - So'nggi yillarda davlat budjeti daromadlarini oshirish va mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk va yer soliqlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xususan, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish soliq tushumlarini ko'paytirishga, soliq to'lovchilarning majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishini ta'minlashga va soliq tizimining shaffofligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Soliq organlari faoliyatini raqamlashtirish, kadastr ma'lumotlarini takomillashtirish va soliqlarni undirish mexanizmlarini rivojlantirish orqali samarali soliq muhitini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari ma'muriyatchiligi samaradorligi, mavjud muammolar hamda uni takomillashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Eng. - In recent years, the importance of property and land taxes levied on individuals has been steadily increasing in terms of enhancing state budget revenues and ensuring the financial sustainability of local budgets. In particular, improving the efficiency of tax administration contributes to increasing tax revenues, ensuring the timely fulfillment of taxpayers' obligations, and enhancing the transparency of the tax system. The development of an effective tax environment through the digitalization of tax authorities' activities, the improvement of cadastral data, and the advancement of tax collection mechanisms is of significant importance. This article examines the effectiveness of property and land tax administration for individuals, identifies existing challenges, and explores opportunities for its improvement.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *jismoniy shaxslar, mol-mulk solig'i, yer solig'i, soliq ma'muriyatchiligi, soliq tushumlari, mahalliy budjet, soliq bazasi, soliq qarzdorligi, kadastr ma'lumotlari, raqamlashtirish, soliq to'lovchilar, soliqqa tortish, soliq nazorati, soliq tizimi samaradorligi.*

❖ *individuals, property tax, land tax, tax administration, tax revenues, local budget, tax base, tax arrears, cadastral data, digitalization, taxpayers, taxation, tax control, tax system efficiency.*

Kirish.

Hozirgi vaqtda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, mahalliy budjetlar daromadlarining mustahkamlanishi va hududlarning moliyaviy mustaqilligini jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk

va yer soliqlari ma‘muriyatchiligisiz tasavvur etish qiyin. Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida mol-mulk va yer soliqlarini undirish tizimini takomillashtirish, soliqqa tortiladigan obyektlarni to‘liq hisobga olish, soliq bazasini aniq belgilash, soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishini ta‘minlash, soliq qarzdorligini kamaytirish hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kabi tadqiqot yo‘nalishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, soliq ma‘muriyatchiligida shaffoflikni ta‘minlash, soliq to‘lovchilar uchun qulay xizmatlarni joriy etish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Fuqarolarning qonun bilan belgilangan soliqlarni to‘lash majburiyati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida belgilangan [8].

Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari davlat budjeti daromadlarini shakllantirish, mahalliy hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi [6; 7]. Ushbu soliqlar orqali budjet daromadlarining barqarorligini ta‘minlash, hududlarda infratuzilmani rivojlantirish va aholiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish imkoniyatlari kengayadi. Mamlakatimizda soliq tizimini isloh qilish, soliq ma‘muriyatchiligini soddalashtirish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ushbu yo‘nalishning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bois jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulk va yer uchastkalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning to‘liqligi, kadastr va soliq organlari axborot tizimlarining o‘zaro integratsiyasi, soliq summalarining to‘g‘ri hisoblanishi hamda belgilangan to‘lovlarning o‘z vaqtida undirilishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar sharoitida mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish, soliq tushumlarini oshirish va soliq ma‘muriyatchiligi samaradorligini ta‘minlashga alohida e‘tibor berilmoqda. Ayniqsa, jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha mavjud soliq salohiyatidan to‘liq foydalanish, soliq obyektlarini xatlovdan o‘tkazish, kadastr ma‘lumotlarini muntazam yangilab borish va soliq to‘lovchilarning huquqiy xabardorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Amaliyotda ayrim obyektlarning hisobga olinmaganligi, ma‘lumotlar bazalari o‘rtasidagi tafovutlar, soliq qarzdorligining mavjudligi va to‘lov intizomining yetarli darajada emasligi soliq tushumlarining to‘liq shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish va nazorat mexanizmlarini samarali tashkil etish zarur hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari ma‘muriyatchiligi samaradorligini oshirish bugungi kunda soliq organlari oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Chunki mazkur soliqlar bo‘yicha tushumlarning to‘liqligini ta‘minlash nafaqat soliq stavkalariga, balki soliq obyektlarini aniqlash, soliq bazasini shakllantirish, imtiyozlarni qo‘llash va qarzdorlikni undirish jarayonlarining qay darajada tashkil etilganligiga ham bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, soliq ma‘muriyatchiligining natijadorligini baholashda hisoblangan soliq summalari, amalda undirilgan tushumlar, soliq qarzdorligi darajasi va soliqqa tortish obyektlarining qamrovi kabi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ko‘rsatkichlarni kompleks o‘rganish orqali mavjud muammolarni aniqlash, soliq tushumlarini oshirish imkoniyatlarini belgilash hamda jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari ma‘muriyatchiligini

takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari ma’muriyatchiligi samaradorligini oshirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. J. Norregaardning fikricha, ko‘chmas mulkka solinadigan soliq mahalliy budjet daromadlarining muhim manbai bo‘lib, uning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun soliq solish obyektlarini to‘liq ro‘yxatga olish, ularni haqqoniy baholash va undirish tizimini rivojlantirish zarur [1].

H. Blöchliger ko‘chmas mulkni baholash mexanizmlari, soliq bazasi va imtiyozlar tizimi tushumlarning shakllanishiga ta’sir etishini ko‘rsatadi. Uning tadqiqotida bozor qiymatidan past baholash va keng ko‘lamli imtiyozlar mol-mulk solig‘ining fiskal salohiyatini cheklovchi omillar sifatida qayd etilgan [2].

M. Grote va J.-F. Wen ko‘chmas mulk soliqlarini isloh qilishda soliq bazasi va stavkalarini belgilash bilan bir qatorda obyektlarni qamrab olish, baholash, xabarnoma yuborish, to‘lovlarni yig‘ish va majburiy undirish jarayonlarini takomillashtirish zarurligini asoslaydi [3].

B. Mukimov soliq ma’muriyatchiligi metodologiyasini takomillashtirish va soliq majburiyatlarining bajarilishini ta’minlash masalalarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida tadqiq etgan. Muallif soliq yig‘imlarini optimallashtirish hamda ma’muriy jarayonlarning samaradorligini oshirish yondashuvlarini bayon qilgan [4].

Sh.U. Ramazonov jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i ma’murchiligini raqamlashtirish, yer kadastri va soliq organlari ma’lumotlarining integratsiyasini yaxshilash mexanizmlarini o‘rgangan. Tadqiqotda soliq bazasining aniqligi va axborot almashinuvining uzluksizligi ma’muriyatchilik samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar sifatida qaraladi [5].

Soliqqa tortish va budjet daromadlarini shakllantirishga bag‘ishlangan mahalliy ilmiy va o‘quv adabiyotlarda ham soliq tizimining nazariy asoslari, budjet-soliq siyosati hamda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish masalalari yoritilgan [9–13].

Mazkur tadqiqotlar tahlili soliq solish obyektlarini to‘liq hisobga olish, kadastr ma’lumotlarining ishonchliligi, imtiyozlarni asosli qo‘llash va soliq qarzdorligini kamaytirish o‘zaro bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Biroq mol-mulk va yer soliqlari ma’muriyatchiligini yagona yondashuv asosida kompleks baholash hamda ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini tizimlashtirish masalalari qo‘shimcha tahlilni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlashda me’yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma’lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o‘rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari mahalliy budjetlarning barqaror daromad manbalaridan biri bo‘lib, ularning fiskal natijadorligi faqat amaldagi stavkalar miqdori bilan belgilanmaydi. Natijadorlik soliq solish obyektlarini to‘liq hisobga olish, soliq bazasini haqqoniy shakllantirish, imtiyozlarni manzilli qo‘llash, to‘lov xabarnomalarini o‘z vaqtida yetkazish va hisoblangan majburiyatlarning undirilishini ta‘minlash darajasiga bog‘liq. Shu sababli mazkur soliqlar amaliyotini baholashda tushumlar dinamikasi bilan cheklanib qolish emas, balki hisoblash va undirish zanjirining har bir bosqichini alohida tahlil qilish talab etiladi.

Mol-mulk va yer soliqlari joriy daromaddan emas, shaxs egaligidagi iqtisodiy aktivdan kelib chiqishi bilan daromad soliqlaridan farqlanadi. Biroq ushbu

soliqlarning to‘lovga qobiliyat tamoyiliga muvofiqligi aholining real daromadlari, bandlik holati va hududiy daromadlar tafovutidan ajratilgan holda baholanishi mumkin emas. Shuning uchun mulkiy soliqlar tushumining o‘sishi bir tomondan soliq bazasining kengayishini ifodalasa, ikkinchi tomondan stavkalar indeksatsiyasi, kadastr ma‘lumotlarining yangilanishi va soliq yukining o‘zgarishi natijasi bo‘lishi mumkin.

Amaldagi mexanizmda soliq majburiyati jismoniy shaxs tomonidan mustaqil deklaratsiya asosida emas, vakolatli davlat organlarining axborot resurslari asosida soliq organi tomonidan hisoblab chiqariladi. Mol-mulk solig‘i bo‘yicha ko‘chmas mulkning huquqiy maqomi va kadastr qiymati, yer solig‘i bo‘yicha esa yer maydoni, toifasi, joylashuvi va foydalanish maqsadi birlamchi axborot bazasini shakllantiradi. Demak, hisoblashning aniqligi soliq organi faoliyatidan tashqari kadastr va huquqiy reyestrlar ma‘lumotlarining sifati bilan ham belgilanadi [6].

Tadqiqotda amaldagi hisoblash va undirish mexanizmi o‘zaro bog‘liq besh bosqichga ajratildi: soliq solish obyektini identifikatsiya qilish, soliq bazasini shakllantirish, stavka, koeffitsiyent va imtiyozlarni qo‘llash, soliq xabarnomasini yetkazish va to‘lovni tashkil etish, shuningdek, qarzdorlikni nazorat qilish hamda undirish (1-rasm). Ushbu yondashuv mexanizm samaradorligini faqat yakuniy tushum bilan emas, balki natijaga ta’sir qiluvchi oraliq jarayonlar orqali ham baholash imkonini beradi.



1-rasm. Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash hamda undirish mexanizmining mantiqiy ketma-ketligi

1-rasmda ifodalangan ketma-ketlikka ko‘ra, yakuniy tushum avvalgi bosqichlarda shakllangan axborot va hisob-kitob natijalarining yig‘ma ifodasidir. Masalan, to‘lov intizomi yuqori bo‘lgan sharoitda ham soliq solish obyektlarining bir qismi reyestrga kiritilmagan bo‘lsa, tushum ko‘rsatkichi ma‘murchilikning haqiqiy samaradorligini to‘liq aks ettirmaydi. Aksincha, obyektlar to‘liq qamrab olingan, biroq xabarnomalar o‘z

vaqtida yetkazilmagan holatda hisoblash sifati yuqori bo'lsa ham undirish darajasi pasayadi. Shu sababli mexanizmni natijaviy baholashda obyektlar qamrovi, hisoblash aniqligi va undirish koeffitsiyenti birgalikda qo'llanishi lozim.

1-jadval

Mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash hamda undirish mexanizmining tahliliy tarkibi [6]

Mexanizm bosqichi	Amaldagi mazmun	Natijaviy ko'rsatkich	Asosiy tahliliy cheklov
Obyektni hisobga olish	Kadastr va huquqiy reyestr ma'lumotlari asosida obyektni identifikatsiya qilish	Hisobga olingan obyektlar soni va qamrov darajasi	Reyestrlar o'rtasidagi tafovut va ma'lumotning kech yangilanishi
Soliq bazasini shakllantirish	Kadastr qiymati yoki yer maydoni va toifasini aniqlash	Hisoblangan soliq bazasi va qayta hisoblashlar hajmi	Qiymat, maydon yoki foydalanish turining real holatga mos kelmasligi
Soliqni hisoblash	Stavka, hududiy koeffitsiyent va imtiyozlarni qo'llash	Hisoblangan sof soliq majburiyati	Koeffitsiyent va imtiyozlarni qo'llash mezonlarining yetarli o'lchanmasligi
Xabarnoma va to'lov	Soliq xabarnomasini yetkazish va elektron to'lovni qabul qilish	Ixtiyoriy to'lov va o'z vaqtida bajarilgan majburiyatlar ulushi	Xabarnomani yetkazish hamda to'lov davri bo'yicha axborot uzilishi
Undirish va nazorat	Qarzdorlikni hisobga olish va undirish choralarini qo'llash	Undirish koeffitsiyenti va soliq qarzi	Qarzdorlik sabablarining tarkibiy ajratilmasligi

1-jadvaldagi tahliliy tarkib mol-mulk va yer soliqlarining umumiy ma'muriy jarayonga ega bo'lishiga qaramay, soliq bazasini shakllantirish kanallari turlicha ekanini ko'rsatadi. Mol-mulk solig'ida kadastr qiymati va obyektning funksional turi, yer solig'ida esa maydon, yer toifasi va foydalanish maqsadi ustuvor o'rin tutadi. Shu bois bir xil ma'lumot xatosi ikki soliqda turli fiskal oqibatni keltirib chiqaradi. Mol-mulk obyektining foydalanish turi noto'g'ri aks ettirilsa, unga mos bo'lmagan stavka qo'llanishi mumkin. Yer uchastkasining toifasi yoki maydoni noto'g'ri ko'rsatilsa, soliq bazasi bevosita buziladi.

Amaldagi hisoblash mexanizmining yana bir xususiyati soliq to'lovchining hisob-kitob jarayonida passiv ishtirok etishidir. Soliq majburiyati davlat axborot tizimlari asosida avtomatik shakllantiriladi, soliq to'lovchi esa tayyor hisob-kitobni xabarnoma orqali qabul qiladi. Bu ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi. Biroq ma'lumotdagi xatoni aniqlash va tuzatish mas'uliyatining katta qismi soliq to'lovchining murojaatiga bog'lanib qolsa, avtomatlashtirishning samarasi pasayadi. Shuning uchun raqamlashtirishni faqat elektron xabarnoma va to'lov vositalari bilan emas, ma'lumotlarni avtomatik muvofiqlashtirish darajasi bilan baholash zarur.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlash va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur soliqlarni samarali tashkil etish soliqqa tortiladigan obyektlarni to'liq hisobga olish, kadastr ma'lumotlarining ishonchliligini ta'minlash, soliq bazasini to'g'ri shakllantirish va soliq to'lovchilarning to'lov intizomini oshirish bilan bevosita bog'liq. Shuningdek, soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy

etish, elektron xizmatlarni rivojlantirish va soliq qarzdorligini kamaytirish orqali soliq tushumlarining o‘z vaqtida va to‘liq undirilishiga erishish mumkin.

Shu bilan birga, mol-mulk va yer soliqlari ma‘muriyatchiligining mavjud holatini muntazam tahlil qilish, uning samaradorligini baholovchi ko‘rsatkichlarni takomillashtirish hamda aniqlangan muammolar bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur. Ayniqsa, soliq organlari va kadastr tashkilotlari o‘rtasidagi axborot almashinuvini kuchaytirish, soliq obyektlarini xatlovdan o‘tkazish va soliq to‘lovchilarning xabardorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari ma‘muriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliq salohiyatidan to‘liq foydalanish va mahalliy budjetlar daromadlarining barqarorligini ta‘minlash imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Norregaard J. Taxing Immovable Property: Revenue Potential and Implementation Challenges // IMF Working Paper. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2013. — № WP/13/129. — 43 p. — DOI: 10.5089/9781484369050.001.

2. Blöchliger H. Reforming the Tax on Immovable Property: Taking Care of the Unloved // OECD Economics Department Working Papers. — Paris: OECD Publishing, 2015. — № 1205. — 33 p. — DOI: 10.1787/5js30twon7kg-en.

3. Grote M., Wen J.-F. How to Design and Implement Property Tax Reforms // IMF How To Notes. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2024. — № 2024/006. — 30 p. — DOI: 10.5089/9798400288753.061.

4. Mukimov B. O‘zbekiston soliq ma’murchilik metodologiyasini takomillashtirish masalalari (ilg‘or xorijiy davlatlar misolida) // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. — 2023. — Jild 1, № 3. — B. 26–32. — DOI: 10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss3-pp26-32.

5. Ramazonov Sh. U. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i ma’murchiligini raqamlashtirish va kadastr ma’lumotlari integratsiyasini takomillashtirish mexanizmlari // Innovatsion iqtisodiyot. — 2026. — Jild 2, № 2. — B. 10–15. — DOI: 10.70769/3030-315X.II.2.2.2026.1.

6. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan yangi tahrir // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-4674902

7. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi: O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi O‘RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/uz/acts/-2302187

8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-apreldagi umumxalq referendumida qabul qilingan tahrir // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/docs/-6445145

9. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. — Toshkent: Akademiya, 2002. — 204 b.

10. Malikov T.S., Jalilov P.T. Budjet-soliq siyosati: monografiya. — Toshkent: Akademnashr, 2011. — 472 b.

11. Vahobov A.V., Jo‘rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish: darslik. — Toshkent: Sharq, 2009. — 448 b.

12. Jo‘rayev A. S. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari: monografiya. — Toshkent: Fan, 2004. — 243 b.

13. Gadoyev E.F., Qo‘ziyeva N.R. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish: darslik. — Toshkent: O‘zbekiston, 2012. — 336 b.